



## Muqimiy ijodida iqtisodiy voqelik: "Qo'qondan Isfaragacha" sayohatnomasining tahlili

**Alijonova Gulnozaxon Dilshodjon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

e-mail: alijonovagulnozaxon1907@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna**

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti

“O‘zbek va rus tillari” kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan o'zbek shoiri Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning "Sayohatnoma" asari — xususan "Qo'qondan Isfaragacha" qismi — iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shoir o'z sayohati davomida Farg'ona vodiysining turli qishloq va shaharlarini kuzatib, bozor munosabatlari, narx-navo adolatsizligi, hokimiyat korruptsiyasi va resurslar taqsimotidagi tengsizlikni she'riy tarzda tasvirlagan. Maqolada zamonaviy iqtisodiy tushunchalar — talab va taklif, xulq-atvor, resurs qarg'ishi, inson kapitali va institutsional iqtisodiyot — asarlari mazmuni bilan bog'lanib o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Muqimiy, sayohatnoma, bozor iqtisodiyoti, korruptsiya, mehnat, narx adolati, Farg'ona vodiysi, XIX asr iqtisodiyoti.

**Аннотация.** В данной статье анализируется творчество узбекского поэта Мухаммада Аминходжи Муками с экономической точки зрения, жившего и творившего во второй половине XIX века. Во время своего путешествия поэт посетил разные деревни и города Ферганской долины и поэтически описал рыночные отношения, ценовую несправедливость, коррупцию в правительстве и неравенство в распределении ресурсов. В статье рассматриваются современные экономические концепции — спрос и предложение, поведение, ресурсное проклятие, человеческий капитал и институциональная экономика — в связи с содержанием его произведений.

**Ключевые слова:** Муками, путевые заметки, рыночная экономика, коррупция, труд, ценовая справедливость, Ферганская долина, экономика XIX века.

*“Iqtisodiyot jamiyatning tanasi bo'lsa, adabiyot uning ruhidir.”*

Adabiyot va iqtisodiyot ko'pincha bir-biriga uzoq fanlar sifatida ko'rinadi. Biroq aslida ular bir zamindan oziqlanadi: inson hayoti, jamiyat munosabatlari va ijtimoiy adolat masalalaridan. Bu ibora **"Iqtisodiyot jamiyatning tanasi bo'lsa, adabiyot uning ruhidir"** – jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy asoslarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi chuqur mazmunli fikrdir. Uning ma'nosini quyidagicha tushunish mumkin: **Iqtisodiyot — tana (Moddiy asos):** Tana insonning yashashi, harakatlanishi va jismoniy ehtiyojlarini (oziq-ovqat, uy-joy, kiyim) ta'minlaydi. Xuddi shunday, iqtisodiyot jamiyatning moddiy farovonligi, infratuzilmasi va xavfsizligini ta'minlaydi. Iqtisodiyotsiz jamiyat "jismonan" yashay olmaydi. **Adabiyot — ruh (Ma'naviy asos):**

Ruh insonning his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, axloqi va qadriyatlarini belgilaydi. Adabiyot (san'at, madaniyat) jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi, insoniylikni, vijdonni, go'zallikni va tarbiyani o'rgatadi. Adabiyotsiz jamiyat "ruhsiz", ya'ni mexanik va qadriyatsiz bo'lib qoladi. Ruhsiz tana o'lik bo'lganidek, faqat moddiy boylikka intilib, ma'naviyatdan (adabiyotdan) uzoqlashgan jamiyat ham o'zligini yo'qotadi. Bu ibora moddiy rivojlanish bilan birga, ma'naviy yuksalish ham birdek muhim ekanligini ta'kidlaydi. Mumtoz adiblar ko'p hollarda o'z zamonasining eng aniq iqtisodiy kuzatuvchilari bo'lgan — ular raqamlar emas, she'r orqali gapirgan, ammo ko'rgan-kuzatganlari zamonaviy iqtisodchidan kam emas edi.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850–1903) — Qo'qon adabiy muhitining yetakchi namoyandasi. Uning "Sayohatnoma" asari, xususan "Qo'qondan Isfaragacha" qismi, shoir Farg'ona vodiysi bo'ylab qilgan sayohati asosida yozilgan bo'lib, o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini hajviy va o'tkir tarzda aks ettiradi. Kuldosh Pardayevning "Biz bilmagan Muqimiy" (Toshkent, 2019) kitobida tiklangan va yangi aniqlangan bandlar ushbu asarning iqtisodiy mazmunini yanada to'laroq ochib berdi. Iqtisodiyot talabalari uchun bu asar nafaqat adabiy, balki empirik manba sifatida ham qimmatlidir: Muqimiy bozorlarni, narxlarni, mehnat munosabatlarini, hokimiyat va resurslarni bevosita kuzatgan va qalamga olgan. Ushbu maqol shoir nigohini zamonaviy iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'lashga urinadi. Muqimiy yashagan davr — Qo'qon xonligining inqirozidan so'ng (1876) Rossiya imperiyasi mustamlakasi o'rnatilgan o'tish davri edi. Bu siyosiy o'zgarish o'z navbatida vodiyni iqtisodiy tuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatdi: an'anaviy bozor tizimlari buzildi, yangi soliq va boshqaruv mexanizmlari joriy etildi, dehqon va hunarmandlar ikki tomonlama zulm ostida qoldi. U satira orqali jamiyatdagi illatlarni masxara qiladi. Shoir o'z sarguzashtlarini tasvirlab, qashshoqlik, ochko'zlikni, xalqning ming yillik hayotini, hokimiyatning byurokrtiyasini ochib beradi. Asar toponimlarga boy bo'lib, Muqimiy borgan va sayohat qilgan joy va hududlar nomlari qo'llanmaga real tuyg'u beradi. "Sayoxatnoma"ning ahamiyati sayohatni tasvirlashdan ham ko'proq; bu haqiqatni ochib beruvchi ijtimoiy hujjatdir. Ayni shu sharoitda Muqimiy Qo'qondan Isfaragacha bo'lgan yo'lda — Yaqquatut, Ishtonsoldisi, Rofqon, Yayfan, Norsuh, Isfara va Chorqo'y kabi manzillarni bosib o'tib — o'z kuzatuvlarini she'rga soldi. Bu kuzatuvlar bugungi iqtisodchi uchun XIX asr vodi y iqtisodining jonli xronikasiga aylanadi. Bozor munosabatlari va narx adolati. Narxning adolatsizligi va bozor nosozligi. Muqimiy sayohatning dastlabki manzili — Yakkatutda — bir qurut bir tangaga sotilganini kuzatib, bu holatni quyidagicha ta'riflaydi:

*"Bir tanga sotkay bir kurut, Insofsiz taror ekan."*

Zamonaviy iqtisodiyotda bu holat "bozor nosozligi" yoki "narx diskriminatsiyasi" kategoriyasiga kiradi. Sayohatchilar va shaharliklar mahalliy bozorda ma'lumot asimetriyasiga duchor bo'ladi: mahalliy sotuvchi xaridorning alternativ variantlardan bexabarligini bilib, narxni sun'iy ko'taradi. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" nazariyasi raqobatli bozorni nazarda tutadi — ammo Muqimiy tasvirlaydigan bozor raqobatli emas, balki monopollashgan va ma'lumot jihatidan nomutanosib bozordir. Rafqon va Chorqo'y bozorlari: taklif tanqisligi. Muqimiy Rofqon bozorini "tang" — ya'ni tor va kichik — deb ta'riflaydi. Chorqo'y bozorida esa atigi bir-ikki-uch do'kon bo'lgan:

*"Chorqo'y bozorini tor bil, Bir, ikki, uch do'kon ekan."*

Bu tasvir zamonaviy iqtisodda "talab-taklif muvozanatsizligi" sifatida o'qiladi. Bozorning jismoniy kichikligi va do'konlar kamligi — bu hududda savdo infrastrukturasi zaifligi, shuningdek aholining xarid qobiliyatining pastligidan dalolat beradi. Keyns iqtisodiyotida bunday hududlar "ekonomik depressiya zonasi" hisoblanadi: talab past, taklif ham past, iqtisodiy faollik minimal. Haftalik bozor tizimi (Seshanba kuni, Payshanba kuni) o'sha davrda vodiy iqtisodiyotining asosiy savdo mexanizmi edi. Biroq Muqimiy ko'rgan manzara shuni ko'rsatadiki, bu bozorlar hali zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy belgilaridan — erkin raqobat, narx shaffofligi va ixtisoslashuv — mahrum edi.

**Mehnat munosabatlari va kambag'allik** . Dehqonlar ahvoli: yer va mehnat. Sayohatnomasining yangi topilgan qismida Muqimiy dehqon mehnatini og'ir va haqsiz deb tasvirlaydi:

*"Tunsiz, yalang'och, hay, darig', Bechora, och dehqon ekan!"*

Bu tasvir XIX asr agrar iqtisodiyotining eng og'riqli tomonini ochib beradi. Klassik iqtisodchilar Devid Rikardo va Tomas Maltus nazariyalariga ko'ra, agar yer egaligi muayyan bir guruh qo'lida to'plangan bo'lsa, dehqon o'z mehnati evaziga faqat tirikchilik uchun yetarli minimal daromad oladi — bu "temir qonun" deyiladi. Muqimiyning ochi, yalang'ochi dehqoni ayni shu qonunning jonli ifodasidir. Mardikor mehnati: erkin yoki majburiy? "Isfara sayohatidan" qismida "Boy mardikori Machchoyi" iborasi keladi. Boyvachchaga bog'liq mardikor mehnatini Muqimiy shunday tasvirlaydi:

*"Boy mardikori Machchoyi, Chuntog' samonlik loyi, Bechoraga nonu choyi, Tun o'rnida o'tgon ekan."*

Bu tasvirda zamonaviy mehnat iqtisodiyotining muhim kategoriyasi ko'zga tashlanadi: majburiy iqtisodiy bog'liqlik. Mardikor rasmiy qullik sharoitida bo'lmasa ham, muqobil ish topa olmaganligi sababli hatto minimal to'lovga ham ko'nishga majbur. Bugungi iqtisodchilari buni "monopsoniya" — ya'ni mehnat bozorida yagona xaridor (boy) va ko'p sotuvchi (ishchilar) holatiga o'xshatadi. Bunday sharoitda ish haqi tabiiy darajadan pastga tushadi. Boshqaruv, korrupsiya va amaldorlar xulq-atvori. Muqimiy Mingboshi Eshdavlatni quyidagicha ta'riflaydi:

*"Mingboshi Eshdavlat akam, Ammo quruq savlat akam, Qilsa chiqim gar bir diram, Uyqu qochib, bedor ekan."*

Bu portret zamonaviy institutsional iqtisodiyotdagi "davlat yetkazib beruvchi" muammosini aniq aks ettiradi. Mingboshi rasman hokimiyat vakilini ifodalaydi, biroq amalda uning asosiy maqsadi jamiyat manfaatini emas, shaxsiy boyligini himoya qilishdir. Bir dirham ham sarflashga tayyor bo'lmagan amaldor — bu "ommaviy ne'matlar" nazariyasida "bepul minuvchi" ning hokimiyat versiyasidir.

**Amaldorlar xulq-atvori: iqtisodiy tushuntirish.** Gordon Tullok va Anne Krueger tomonidan ishlab chiqilgan "lavozim orqali pul ishlash" (rent-seeking) nazariyasiga ko'ra, ba'zi shaxs yoki guruhlar ishlab chiqarish orqali emas, balki siyosiy ta'sir, lavozim yoki monopoliya orqali daromad izlaydi. Bu jamiyat uchun iqtisodiy isrof hisoblanadi: resurslar unumli faoliyat o'rniga hokimiyat o'yiniga sarflanadi. Muqimiy tasvirlaydigan ko'pgina amaldorlar — Rofqondagi mullolar, mahalliy hokimlar, do'kondorlar — lavozimi orqali boyish (rent-seeking) xulq-atvorining klassik namunasi.

Ular mehnati bilan emas, lavozimlari tufayli daromad oladi va xalqning ishlab chiqargan boyligini qayta taqsimlab oladi.

**Adolatli qozi: institutsional muqobil.** Qiziqarlisi shundaki, Muqimiy hamma amaldorni ham bir xil qoralamaydi. Isfara qozisini u adolatli deb ta'riflaydi. Zamonaviy iqtisodiyotda mustaqil va adolatli sud tizimi iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit hisoblanadi: u shartnomalar bajarilishini ta'minlaydi, mulk huquqini himoya qiladi va investitsiya muhitini shakllantiradi. Muqimiy yashagan davrda bunday qozining kamyoblighi — vodiy iqtisodiy rivojlanishining tormozi edi.

**Tabiiy ne'matlar.** Muqimiy Isfarani tasvirlaganda tabiatning boy ne'matlarini — anhorlar, serob soylar, shirin zardolular — ta'riflaydi:

*"Anhor va soyu jullari, O'ynab kelodur suvlari, Shirin-ki, zardolulari, Qandu asal bekop ekan."*

Biroq ayni shu Isfara xalqi kambag'al va holatdan norozidir. Bu paradoks zamonaviy iqtisodiyotda "resurs qarg'ishi" (resource curse) deb nomlanuvchi hodisani eslatadi. Richard Auty tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariyaga ko'ra, tabiiy resursga boy hududlar ko'pincha shu resurslarni boshqaruvchi elita foydasida qayta taqsimlanganligi sababli aholi farovonligi past qoladi. Muqimiy ko'rgan Isfara — serob tabiatiga qaramasdan qashshoq xalqi bilan — bu hodisaning XIX asr ko'rinishi edi. Shuningdek, Muqimiy bodom konlariga ham to'xtaladi. Konchilik resurslari kim tomonidan, qanday boshqarilgani — bu ham resurslarga egalik muammosini ko'taradi. Agar tabiiy resurslar (suv, yer, konlar) adolatli taqsimlanmasa, iqtisodiy o'sish tor doiradagi boylarning yanada boyishiga xizmat qiladi.

**Savdo yo'llari, infratuzilma va ijtimoiy kapital .** Yo'l va infratuzilma iqtisodiyoti. Muqimiy tasvirlaydigan Qo'qon–Isfara yo'li o'sha davrda Markaziy Osiyoning muhim savdo arteriyalaridan biri edi. Biroq shoir bu yo'lning mashaqqatini — tog'lar, yo'l bezorilar, og'ir iqlim — alohida ta'kidlaydi:

*"Ketguncha yo'llar horlap, Yo'l zahmidin ozorlar, Ko'kka yetar ko'hsorlar, Hayho't, horiston ekan."*

Zamonaviy iqtisodiyotda transport infratuzilmasi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Yaxshi yo'llar savdo xarajatlarini kamaytiradi, bozorlarni birlashtiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Muqimiy tasvirlaydigan og'ir yo'l sharoiti — bu vodiy bozorlarining bir-biridan ajralib qolishiga, narxlardagi katta tafovutlarga va savdo hajmining pastligiga olib kelgan omillardan biridir.

**Ijtimoiy kapital: Burxon va Amin Abdurrasul misoli.** Muqimiy sayohatida uchratgan bir necha ijobiy shaxs borki, ularni alohida maqtaydi. Xususan, "Yaxshi yigit, ochiq ko'ngul, Yurt ustida turgan ekan" deb ta'riflangan Amin Abdurrasul yoki Mingboshi Xol haqida ijobiy fikr bildiradi. Robert Patnam tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy kapital" nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi ishonch, hamkorlik va vijdonli rahbarlik — bu ko'rinmas, lekin iqtisodiy o'sish uchun muhim resursdir. Muqimiy qayd etgan bunday shaxslar hayoti — "ijtimoiy kapital" ning o'sha davrgi namunasi. Ular nafaqat shaxsan yaxshi, balki atrof-muhit iqtisodiy hayotini ham sog'lomlashtiradigan tizim o'rnatuvchilar edi.

**Xulosa.** Muqimiyning "Qo'qondan Isfaragacha" sayohatnomasini iqtisodiy prizma orqali o'qiganimizda, shoir nafaqat lirik ijodkor, balki o'z zamonasining keskin va o'tkir iqtisodiy kuzatuvchisi bo'lganini ko'ramiz. U she'r orqali quyidagi iqtisodiy

muammolarni belgilagan: Birinchidan, bozor nosozligi: narx adolatsizligi, ma'lumot asimmetriyasi va raqobat yo'qligi. Ikkinchidan, mehnat istismoori: dehqon va mardikorlarning haqqsiz mehnat sharoitlari. Uchinchidan, rent-seeking korrupsiya: davlat lavozimini shaxsiy boyluk manbaiga aylantirgannon hokimlar. To'rtinchidan, resurs taqsimotidagi tengsizlik: tabiiy boyluklarning kam sonli elite qo'lida to'planishi. Beshinchidan, infratuzilma zaifligi: savdo va iqtisodiy aloqalarni to'sqinlovchi yo'l va bozor muammolari. Bu muammolarning aksariyati bugungi kunda ham rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud. Shuning uchun Muqimiyni o'rganish iqtisodiyot talabalari uchun faqat adabiy emas, balki amaliy ahamiyat kasb etadi: shoir bizga iqtisodiy adolatsizlikning qanday ko'rinishini va unga qarshi qanday fuqarolik pozitsiyasida turish kerakligini ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda: Muqimiy she'r bilan yozgan narsani zamonaviy iqtisodchilar raqamlar bilan o'lchaydi — ikkalasi ham bir haqiqatni aytadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sharafiddinov O zamondoshlar xotirasida . -T.: Sharq, 2019.  
Pardayev K. Biz bilmagan Muqimiy (Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar). — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019. — 160 b.
2. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
3. Acemoglu D., Robinson J.A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. — New York: Crown Publishers, 2012.
4. Auty R.M. Sustaining Development in Mineral Economies: The Resource Curse Thesis. — London: Routledge, 1993.
5. Krueger A.O. The Political Economy of the Rent-Seeking Society // American Economic Review. — 1974. — Vol. 64, No. 3. — P. 291–303.
6. Putnam R. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. — Princeton: Princeton University Press, 1993.
7. Karimov G'. Muqimiy hayoti va ijodi. (Monografiya). — Toshkent, 1970.